

## INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA INVESTISION MUHITINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIY SHARTLARI VA OMILLARI



**Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich**

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida dotsent v. b.,  
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Kengash kotibi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi sharoitda investisiyalarni moliyalashtirishda investision muhitini rivojlantirishning zaruriy shartlari va omillari o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'rganishlar asosidagi muhokama va xulosalar ko'zda tutilga aspektida ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** investisiya, investisiya muhiti, investision faoliyat, investisiyalarni moliyalashtirish, zamonaviy iqtisodiy jarayon.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investisiyalarni jalb qilish siyosati-mavjud mablag'lardan, vaqt va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish, yaratilgan shartsharoitlardan kelib chiqqan holda boyliklarni samarali tasarruf etish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirish yo'li bilan investisiyalarni faol jalb qilishga va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan [2]. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi, asosan milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investisiya mablag'larining hajmi va tarkibiga bog'liq. Shunday ekan, har bir davlat o'z hududida investisiya mablag'larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi muqarrar.

Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan O'zbekistonning investision jozibadorligini tadqiq etish, investisiya mablag'larining ichki kapital resurslar hamda xorijiy investisiya va kreditlar asosida ko'payishiga erishish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan rivojlanishning uzoq muddatga mo'ljallangan konsepsiyalari ishlab chiqilishi, bu borada birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlari qabul qilinib, mazkur dasturlarni moliyalashtirish fondi tashkil etilishi ta'kidlandi. Bunda iqtisodiyotni rivojlantirishda aholi qo'lida to'plangan mablag'larni investisiya shaklida harakatga keltirish, odamlarda tadbirkorlik hissini kuchaytirish muhim vazifalarimizdan biri ekanligi e'tirof etildi [1].

Investision faoliyatni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlovchi manbalarning tahlili yuzasidan iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalariga

to'xtaladigan bo'lsak, investision faoliyatni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini nazariy jihatlari qator iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Taniqli iqtisodchi olimlardan U. Sharp ham investisiya faoliyatini fond bozori orqali moliyalashtirish mexanizmiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikriga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadlilik va risklilik o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqaga ega bo'lgan oqilona investision strategiya investision faoliyatni moliyalashtirishning asosi hisoblanadi. Moliyaviy vositachilar (tijorat banklari, jamg'arma va kredit uyushmalari, kredit ittifoqlari, sug'urta kompaniyalari, o'zaro yordam fondlari, pensiya fondlari) esa, korporatsiyalarni fond bozorida qo'shimcha mablag'lar jalb qilish imkoniyatini bilvosita ta'minlaydi[3].


Fikrimizcha, Ya.Mirkinning fond bozori orqali investision faoliyatni moliyalashtirish mexanizmi xususidagi fikri alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning boisi shundaki, ko'pchilik MDH mamlakatlarida korporativ aksiya va obligatsiyalarga qilinadigan investisiyalarning risk darajasi yuqoriligi va investorlar ishonchining pastligi fond bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy sabablar ekanligi qator ilmiy izlanishlarda o'z ifodasini topgan. U.Sharpning investision faoliyatni moliyalashtirishda moliyaviy vositachilarning roli xususidagi fikriga muvofik, ular investision faoliyatni moliyalashtirishning faol sub'yektlaridan biri hisoblanadi. Ayrim adabiyotlarda ishlab chiqarishni, tadbirkorlikni rivojlantirish, foyda olish yoki boshqa pirovard natijalar olish maqsadlarida turli tarmoqlar, investision loyihalarga moliyaviy, mulkiy va intellektual ne'matlar qo'yilmalarining jami turini investisiyalar deb ataladi [4]. Ushbu mualliflarning fikricha, investisiyalar ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki uni yangilashga, ya'ni real kapitalni oshirishga sarflangan resurslar hisoblanadi.

Lekin shuni ham aytish kerakki, investisiyalar nafaqat real kapitalni oshirishga sarflanadigan resurslardir, ushbu resurslar moddiy, nomoddiy aktivlarga, qimmatli qog'ozlarni sotib olishga ham sarflanadi. Investisiyalar kelajakda foyda yaratish maqsadida iqtisodiy resurslarni uzoq muddatga ishlatish deb ham tushuniladi [4]. Ya'ni, kapitalni kapitalizatsiyalash va jamg'armalarni yaratish maqsadida pirovard maqsadga yetishgacha moliyaviy resurslarni band qilish investisiyalar deb ataladi. O'zbekistonlik olimlar: «Investisiya – bu mulk shaklidan qat'i nazar tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik ob'yektiga sarflashidir»[5]. Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan mualliflarning «Investisiya» tushunchasiga bergan ta'ri flari hozirgi sharoitga va bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladi.

Shuni aytish lozimki, dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida biror mamlakat investisiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Investisiya resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotiga jalb qila olmagan, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechirayotgan davlatlar, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan orqada qolib ketishi hech gap emas. Bunday holatda muammoning eng yaxshi yechimlaridan biri – moliyaviy mablag'lari ortiqcha bo'lgan rivojlangan mamlakatlardagi kapital resurslarni, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga jalb etishdir.


Shuni aytish lozimki, dunyo hamjamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida biror mamlakat investisiyalarsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erisha olmaydi. Investisiya

resurslarini o'z vaqtida milliy iqtisodiyotiga jalb qila olmagan, pul mablag'lari tanqisligini boshidan kechirayotgan davlatlar, ijtimoiy iqtisodiy jihatdan orqada qolib ketishi hech gap emas. Bunday holatda muammoning eng yaxshi yechimlaridan biri – moliyaviy mablag'lari ortiqcha bo'lgan rivojlangan mamlakatlardagi kapital resurslarni, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga jalb etishdir. Investisiyalar yordamida quyidagi vazifalarni hal etish mumkin:



Investorlarning milliy iqtisodiyotga mablag' kiritishi ko'p jihatdan nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki siyosatga ham bog'liq. Investorlar mablag' yo'naltirish uchun eng barqaror mamlakatlarni tanlaydilar. Shuning uchun dunyoning barcha mamlakatlari imkon qadar investision riskni kamaytirishga oid ishlarni bajarishga harakat qiladilar. Mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotda investisiya muhitining jozibadorligini oshirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb etish uchun quyidagi shartsharoitlar mavjud:



Ammo mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida strategik maqsadlarni belgilab olgan ekan, ularni amalga oshirish uchun milliy iqtisodiyotga investisiyalar hajmini oshirish zarur bo'ladi. Buni, birinchidan, ichki investisiyalar hajmini ko'paytirish, ikkinchidan, tashqi investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish negizida amalga oshirish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, ichki iqtisodiyotda shakllangan jamg'arma mablag'larining miqdori YAİM va iste'mol hajmi bilan cheklangan.

Milliy iqtisodiyotga investisiyalar hajmini ichki investisiyalar asosida ko'paytirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- jamg'armalarni investisiyaga aylantirish bilan bog'liq mavjud mexanizmni takomillashtirish;

- tijorat banklari tomonidan aholi qo'lida mavjud pul resurslarini, xoh u milliy, xoh xorijiy valyutada bo'lsin, jalb qilish va ularni tadbirkorlik sub'yektlariga kredit mablag'lari sifatida berish;

- aholi qo'lida yig'ilgan pul mablag'larini «Toshkent» fond birjasi orqali investisiya jarayoniga jalb qilish va hokazo.

Ko'rinib turibdiki, ichki investisiya mablag'larini milliy iqtisodiyotga yanada jadal jalb qilish, mamlakatimizda mavjud kapital resurslarni iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bosqichni bosib o'tishni taqozo etadi.

Milliy iqtisodiyotga investisiyalar kiritish hajmini oshirishda ichki investisiyalarga muqobil omil – bu faqat xorijiy investisiyalar va kredit mablag'lari hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda xorijiy investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish bilan bog'liq

mavjud barcha resurs va zaxiralarni o'rganish va qaytadan ko'rib chiqish, chet el kapitalini milliy korxonalariga yo'naltirish mexanizmini takomillashtirish borasida ish olib borish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotga investisiyalarni jalb etishni rivojlantirish faol investisiya siyosati orqali amalga oshiriladi. Investisiya siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida belgilangan strategik maqsadlarga erishish hamda iqtisodiy siyosatning qisqa muddatli va uzoq istiqbol uchun belgilangan vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni yuksaltirish va ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida iqtisodiy faoliyat sub'yektlari uchun qulay xo'jalik yuritish sharoitlarini yaratish orqali mamlakatda investisiya faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli tadbirlar majmuini ifoda etadi. Uning asosiy maqsadi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan investisiya faoliyatini yanada rivojlantirish va jamiyat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishdan iborat.

Iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarining rivojlanishi hamda ularda amalga oshirilayotgan investisiya loyihalarini moliyalashtirish investisiyalarni jalb etish manbalariga va holatiga qanchalik bog'langanligini aniqlash mumkin. Investisiya faoliyatini moliyalashtirishda investision muhitni rivojlantirishni takomillashtirish quyidagi maqsadlardagi islohotlar ijrosi samarasiga bevosita bog'liqdir:

–ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investisiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish;

– iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

– «yashirin» iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;

– valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;

– iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz>

2. Турханов М.Ю. (2024). Инвестиционные фонды, предпосылки и факторы их развития для обеспечения инновационного роста экономики. Вестник Института экономики. №33. С.137-146.

3. Tuxliyev B.K. Investisiyalarni moliyalashtirish manbalarining tarkibi, tahlili va ularni takomillashtirish masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2021 yil. 96-107.

4. Мелкумов Я.С. Инвестиций: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2003.

5. Kuziyeva N.R. Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar moliya va kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: IQTISODMOLIYA, 2006.

